



THE LAW ON STATE CIVIL SERVICE - THE FOUNDATION OF HUMAN INTERESTS

Dildora Ch. Khudoyberdiyeva

Youth leader of Gungon neighborhood, Karshi city, Kashkadarya region

ABOUT ARTICLE

Key words: State civil service, human interests, Uzbekistan.

Received: 11.08.22

Accepted: 13.08.22

Published: 15.08.22

Abstract: All the reforms implemented in our country have the goal of "glorification of human dignity" and protection of our people's manats, including the strengthening of this by law and its strengthening in civil society. The Law on State Civil Service No. ORQ-788 of 08.08.2022 also serves as the main foundation for glorifying human interests. Based on this law, it is envisaged to introduce a new system for the recruitment of civil servants, and through this system, each candidate will be accepted as a civil servant based on the evaluation criteria of his work and achievements. This article discusses the issue of the Law on State Civil Service — the foundation of human interests..

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATI TO‘G‘RISIDAGI QONUN – INSON MANFATLARI POYDEVORI

Dildora Ch. Xudoyberdiyeva

Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar Gungon mahallasi yoshlar yetakchisi

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Davlat fuqarolik xizmati, inson manfatlari, O‘zbekiston.

Annotatsiya: Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi "inson qadrini ulug‘lash" hamda xalqimizning manatlarini himoya qilish maqsadi yotadi, shu jumladan buni qonun orqali mustahkamlash fuqarolik jamiyatida uning mustahkamlanishiga erishiladi. 08.08.2022 yildagi O‘RQ-788-sonli Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi qonun ham inson manfaatlarini ulug‘lashda asosiy poydevor vazifasini o‘taydi. Mazkur qonunga asosan davlat xizmatchilarining ishga qabul qilinishda

yangi tizimni joriy etish ko‘zda tutilgan bo‘lib, ushbu tizim orqali xar bir nomzodning amalga oshirgan ishlari, hamda erishgan yutuqlari baholash mezoni orqali, davlat xizmatchisi vazifasiga qabul qilinadi. Ushbu maqolada Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi qonun – inson manfaatlari poydevori masalasi muhokama qilinadi.

ЗАКОН О ГОСУДАРСТВЕННОЙ ГРАЖДАНСКОЙ СЛУЖБЕ – ОСНОВА ИНТЕРЕСОВ ЧЕЛОВЕКА

Дилдора Ч. Худойбердиева

Молодежный лидер района Гунгон города Карши Кашикадаръинской области

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Государственная гражданская служба, интересы человека, Узбекистан.

Аннотация: Все реформы, проводимые в нашей стране, имеют целью «прославление человеческого достоинства» и защиту манатов нашего народа, в том числе закрепление этого законом и его укрепление в гражданском обществе. Закон о государственной гражданской службе № ОРГ-788 от 08.08.2022 также служит основной основой для прославления интересов человека. На основании этого закона предусмотрено ввести новую систему приема на работу государственных служащих, посредством которой каждый кандидат будет приниматься в качестве государственного служащего на основе критериев оценки его работы и достижений. В данной статье рассматривается вопрос о Законе о государственной гражданской службе — основа интересов человека.

KIRISH

Ushbu qonunda kiritilgan yana bir yangiliklardan biri shuki, "Mahalladan Respublikagacha" tamoyili asosida salohiyatli kadrlar zaxirasini shakllantirish hamda unga nomzodlarni mahallalardagi xokim yordamchilari va yoshlar yetakchilaridan tanlab olinishi ular orasida sog‘lom raqobatni, hamda o‘z kasbiga nisbatan yanada mas’uliyatini oshiradi.

Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi qonuning 5-moddasida. Davlat fuqarolik xizmatining asosiy prinsiplari maqsad vazifalari aniq tarzda yoritiladi.

Davlat fuqarolik xizmatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

davlat fuqarolik xizmati tizimining yagonaligi va barqarorligi;

qonuniylik;

adolatlilik;

xalqqa xizmat qilish;

davlat organlarining va mansabdar shaxslarning jamiyat hamda fuqarolar oldida mas'ulligi;

inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

ochiqlik va shaffoflik;

xolislik, professionallik va kompetentlik;

davlat fuqarolik xizmatiga kirishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarning teng huquqliligi;

davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinishi.

ASOSIY QISM

Mahallalarda yoshlar yetakchilarning asosiy tamoyili mahalladagi yoshlarga xizmat qilish, ularning haq-huquq manfaatlarini himoya etishdir. Davlat tomonidan mahalla yoshlariga berilayotgan imtiyozlar va imkoniyatlarni ularni haqqoniy va adolatli yuritish yoshlar yetakchilarining asosiy burch vazifadir.

Davlat fuqarolik xizmatchisi to‘g‘risidagi qonuning 12-moddasida Davlat xizmatchilarining vazifalari haqida batafsil yoritiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlariga rioya etishi;

o‘z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishi, davlat organi tomonidan belgilangan odob-axloq qoidalariga, xizmatga oid axborot bilan ishlash tartibiga, shuningdek davlat fuqarolik xizmatini o‘tash bilan bog‘liq boshqa qoidalarga rioya etishi;

ushbu Qonunda belgilangan, davlat fuqarolik xizmatini o‘tash bilan bog‘liq bo‘lgan cheklov larga rioya etishi;

manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymasligi, beg‘araz va xolis bo‘lishi;

davlat organining nufuzini tushirishga olib kelishi yoki uning o‘z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishiga shubha tug‘dirishi mumkin bo‘lgan harakatlardan (harakatsizlikdan), shu jumladan o‘z xizmat majburiyatlarini bajarayotganda har qanday shakldagi kamsitishdan, noxolislikdan yoki kimgadir nisbatan alohida munosabatda bo‘lishdan tiyilishi;

o‘z xizmat mavqeyidan shaxsiy va boshqa g‘ayriqonuniy maqsadlarda foydalanmasligi, shuningdek o‘z xizmat faoliyatiga, davlat organlari, ularning mansabdar shaxslari va fuqarolarning faoliyatiga qonunga xilof ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymasligi;

davlat sirlarini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi talablarga rioya etishi, shuningdek o‘z xizmat majburiyatlarini

bajarishi chog‘ida olingan mazkur ma’lumotlarni oshkor qilmasligi, shu jumladan davlat fuqarolik xizmatchisining faoliyati tugaganidan keyin oshkor etmasligi;

qonunda belgilangan muddatlarda va tartibda daromadlari va mol-mulki to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etishi;

davlat mulkining but saqlanishini ta’minlashi, o‘ziga ishonib topshirilgan davlat mulkidan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi;

o‘zining kasbiy kompetensiyasini muntazam ravishda oshirib borishi shart.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Davlat xizmatchisi sifatida men ham o‘z vazifa funksiyalarimni bajarishda xolislikka qonuniylik prinsiplari asosida ish yuritaman.

Jumladan birgina mening mahallamda “Yoshlar Daftariga” kiritilgan 39 nafar yoshlarning 32- nafarining muammolari manzilli o‘rganilib amaliy yordam berildi.

- 10 nafar boquvchisini yo‘qotgan ehtiyojmand yoshlarimizning safarbarlik chaqiruv rezervi to‘lovleri uchun 57 million so‘m

- 6 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarimiz uchun 16 million 245 ming so‘m miqdorida oliy ta’lim muassasalariga shartnoma to‘lovleri tulab berildi.

- 10 nafar yoshlarimiz ustoz shogird ananasi doirasida Hunarmandlarga biriktirish orqali bandligi ta’mindandi.

- 1 nafar yoshlarimizga sog‘ligini tiklash uchun moddiy yordam ajratilganligi

- 5 nafar yoshlarimiz bandligini ta’minalash maqsadida 75 million so‘m miqdorida imtiyozli kredit ajratilganligi hamda shu orqali o‘z bandliklarini ta’minalanganliklari biz yoshlarga “Yoshlar daftarining” mahallamiz yoshlariga bergen imkoniyatlaridan biridir.

- Bundan tashqari yoshlarimiz bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlari uchun o‘tkazib kelinayotgan ma’naviy va ma’rifiy tadbirlarga mahallamiz yoshlari faol ishtirok etib kelishmoqda. Jumladan “Mahallam ijodkorlari” tanlovlari, “Mahallamning Kurashchilari” sport musobaqalari, “Yosh kitobxon” hamda “Yosh kitobxon oila” tanlovlari uchun yoshlar jamg‘armasidan birgina mening mahallam uchun 29 million so‘m miqdorida qimmatbaho sovg‘alar ajratilganligi xam yurtimizda yoshlarga oid davlat siyosatini xar bir yoshimizning hayotiga aks etayotganligini yana bir misolidir.

XULOSA

Hozirda men davlat xizmatchisi bo‘lib, mahalladagi yoshlarning muammolarini tizimli o‘rganib, ularga amaliy yordam berayotganligim xam yoshlarning davlat xizmatchisiga bo‘lgan

ishonchini ortmoqda Bundan tashqari yoshlarimiz orasida “Davlat xizmatchisi” bo‘lishi istagi xam oshib bormoqda.

Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi qonunda Biz yoshlarga yana bir imkoniyat berildi bu imkoniyat “100 ta ilg‘or yetakchilar “dasturining ishga tushirishidir. Men xam barcha yoshlar qator bu imkoniyatdan yuqori darajada foydalanib, kelajakda o‘z oldimga kuygan maqsadlariga erishaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

Shamsiddinovich, N. S. (2022). SINGAPUR NAMUNASIDAGI “DAVLAT XIZMATLARI AGENTLIGI” UNING VAZIFA VA FAOLIYATI. *БОШҚАРУВ ВА ЭТИКА ҚОИДАЛАРИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ*, 2(1), 104-108.

<https://lex.uz/uz/docs/-6145972>

Karimov, N. (2022). IMPORTANCE OF STUDYING AND PROMOTING ORIENTAL CULTURE AND HERITAGE. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 2(03), 28-33.

Omonov, Q., & Karimov, N. (2020). Importance Of Ancestral Heritage. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(09), 196-202.

Karimov, N. (2020). A True Successor of Great Central Asian Scholars. *Bulletin Social-Economic and Humanitarian Research*, (9), 62-69.

Кодирова, Ф. (2020). Деловой узбекский язык. *Архив научных исследований*, (13).